

BOSHLANG'ICH SINFLARGA DARS O'TISH METODIKASI

Rustamova Sarvinoz Akmal qizi

Qarshi xalqaro universiteti

filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Murojat uchun Tel: +998952236522

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18058605>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi zamon ta'lim jarayonida metodika va dars o'tish metodlarining ahamiyati, ularni samarali tashkil etish yo'llari hamda ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Xususan, interfaol metodlardan foydalanish jarayoni, ularning o'quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi ta'siri tahlil qilingan. Maqolada "zinama-zina" metodi, nazariy ta'limotlar va kompyuter modellashtirish texnologiyalarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi orqali o'quvchilarning bilimni puxta egallashi va uni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari kengayishi asoslab berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: metodika, interfaol metodlar, ta'lim metodlari, zinama-zina metodi, nazariy ta'limot, kompyuter modellashtirish, bilim va ko'nikmalar, pedagogik texnologiyalar.

Abstract. This article describes the importance of methodology and teaching methods in the current educational process, ways of their effective organization, and their role in improving the quality of education. In particular, the process of using interactive methods, their influence on the formation of students' cognitive activity, independent thinking and practical skills was analyzed. In the article, the "step-by-step" method, theoretical teachings and the application of computer modeling technologies to the educational process are justified by the expansion of opportunities for students to acquire knowledge and apply it in practice. Also, the use of modern pedagogical technologies serves to increase the effectiveness of education, to strengthen the cooperation between the teacher and the student, and to organize the educational process based on innovative approaches.

Key words: methodology, interactive methods, educational methods, step-by-step method, theoretical teaching, computer modeling, knowledge and skills, pedagogical technologies.

Аннотация. В данной статье описывается значение методологии и методов обучения в современном образовательном процессе, пути их эффективной организации, а также их роль в повышении качества образования. В частности, был проанализирован процесс использования интерактивных методов, их влияние на формирование познавательной активности учащихся, самостоятельного мышления и практических навыков. В статье метод «шаг за шагом», теоретические занятия и применение технологий компьютерного моделирования в образовательном процессе обосновываются расширением возможностей учащихся приобретать знания и применять их на практике.

Также использование современных педагогических технологий служит повышению эффективности образования, укреплению сотрудничества между учителем и учеником, организации образовательного процесса на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: методика, интерактивные методы, методы обучения, поэтапный метод, теоретическое обучение, компьютерное моделирование, знания и умения, педагогические технологии.

KIRISH

Metod (yunoncha “metodos”-bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot)-voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash uchun yaratilgan usullarda biridir. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodikani egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodikani egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko‘p vaqt va kuch sarflaydi. Metodlar haqidagi ta’limot fanda metodologiya deb ham ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o‘xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to‘plab borgan.

Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo‘llaniladigan yo‘l-yo‘riqlar, metodlar ham takomillashib borgan.

Fanning amaliy yani (empirik) va nazariy metodlari vujudga keldi. Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir.

ASOSIY QISM

Metod o‘z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo‘ladi. Har qanday ilmiy kashfiyotlarga nisbatan olimning biror yangilikni kashf qilishda qo‘llagan ilmiy metodi ko‘proq ahamiyatga egadir, chunki boshqa kashfiyotchilar ham shu olim qo‘llagan ilmiy metodga tayanib ko‘plab kashfiyotlarni ochishi mumkin. O‘rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa fan metodlarini rivojlantirganlar.

Xorazmiy olimlarni uchga bo‘lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qo‘llaniladigan yo‘l- yo‘riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan.

Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham M. Taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar metodlar haqida ‘maxsus asarlar ham e‘zishdi. Hozirgi zamon fanlarida ko‘plab umumiy, xususiy ilmiy metodlar qo‘llaniladi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Shuningdek, boshlang‘ich sinfga dars o‘tish metodikasi haqdai ko‘plab maqolalar va shunga doir bo‘lgan turli xildagi kitoblar ham ishlab chiqilmoqda.

Biz hozirgi kunda o‘qituvchining dars o‘tish metodikasi kelib chiqqan holda ba’zi bir ma’lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Bilamizki, ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatligini. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bolgan, o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilaётган ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari ham hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiëjiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va boshqalar. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiëslanishiga asoslaniladi.

Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsagina ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishga qaratilgan zamonaviy usullaridan biri bo'lib kelmoqda. Bularning barchasi hozirgi zamondagi eng ilg'or va ko'p qo'llaniladigan zamonaviy metodlardan bolib. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni aytishimiz mumkin.

O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda o'quvchilarga amaliy ërdam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Hozirda o'zimizning ko'pgina maktablarda boshlang'ich sinflarga dars o'tish metodikasi turli xildir. Masalan, shulardan bir zigzag va zinama-zina metodlarini ko'rishimiz mumkin. Zinamazinga usulida bir o'quvchi boshqa o'quvchiga savol beradi agar u javobni topolmasa, savol bergan o'quvchi bir pog'ona yuqoriga ko'tariladi shu kabi metodlardan foydalanish anchagina darsning sifatli va yaxshi o'tishiga sabab bo'la oladi.

XULOSA

Mazkur maqolada keltirilgan fikr va tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, hozirgi ta'lim tizimida zamonaviy va interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini kuchaytirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy metodlar ta'lim jarayonini qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Interfaol va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, ta'lim jarayonida ochiq muloqot va ijodiy muhitni shakllantiradi. Natijada o'quvchilarda zarur bilim, ko'nikma va malakalar bosqichma-bosqich rivojlanadi hamda ularning zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi. Demak, hozirgi zamon ta'limida zamonaviy metodlardan samarali foydalanish nafaqat davr talabi, balki ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. G'. Ernazarov Boshlang'ich sinflarga ona tili o'qitish metodikasi Toshkent –2013
4. I.G'ulomov, L.Rasulov, X.Rahmatov, M.Mirzaahmedov, O'zbek tili o'qitish metodikasi T., 2000
5. www.arxiv.uz
6. www.fayllar.uz